

# **“RESEARCH AND EDUCATION”**

## **Scientific Research Center**

### **“INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING (2022/2)”**

International Scientific Conference



**28 FEBRUARY, 2022 YEAR**

**UZBEKISTAN, TASHKENT**

# “RESEARCH AND EDUCATION”

## Scientific Research Center



# “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/2”

[www.researchedu.uz](http://www.researchedu.uz)

Languages of publication: о’zbek, english, русский, қазак, точик

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ FEBRUARY 28

**6**

**MUKOVISSIDOZNING PRENATAL HAMDA POSTNATAL  
DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

G’oyibnazarova Kumush Sherali qizi, Anvarova E’zoza Yanvar qizi

**Page No.: 45-49**

**7**

**ОРОЛ ДЕНГИЗИ ҲУДУДИДА ТАРҶАЛГАН ТУПРОҚЛАРНИНГ  
ҲОСИЛ БЎЛИШИ ВА МЕХАНИК ТАРКИБИ**

Каттаева Гулноза Норқуловна

**Page No.: 50-52**

**8**

**CHAKILKALYAN TOG‘LARINING PLITA ICHI MAGMATIZMI  
JARAYONIDA OLTIN MA’DANLASHUVI**

Sultonov Shuxrat Adxamovich

**Page No.: 53-59**

**9**

**OG‘IR NEFT VA TABIIY BITUM QAZIB CHIQARISHNING  
GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI**

Yarboboyev To‘lqin Nurboboyevich, Qosimova Karima Yodgor qizi

**Page No.: 60-67**

**10**

**CHAKILKALYAN TOG‘LARIDAGI KAVSAGAR MAYDONIDA  
APOKARBONAT OLTIN MA’DAN MINERALLASHUVINING  
JOYLASHISH SHAROITLARI**

Yarboboyev To‘lqin Nurboboyevich, Ochilov Ilyos Saidovich

**Page No.: 68-71**

**11**

**INTENSIV PAKANA NOK NAVLARINING O’SISHI, RIVOJLANISHI VA  
HOSIL ELEMENTLARI SHAKLLANISHINING NAV-PAYVANDTAGLAR  
KOMBINATSIYASI VA KO’CHAT QALINLIGIGA BOG’LIQLIGI**

Yunusov Rustam, Ganiyeva Feruza Amrilloyevna

**Page No.: 72-76**

**INTENSIV PAKANA NOK NAVLARINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA  
HOSIL ELEMENTLARI SHAKLLANISHINING NAV-PAYVANDTAGLAR  
KOMBINATSIYASI VA KO'CHAT QALINLIGIGA BOG'LQLIGI**

**Yunusov Rustam**

Buxoro davlat universiteti

**Ganiyeva Feruza Amrilloyevna**

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro tumani, “Bog’i Kalon” MFY hududida joylashgan “SiyovushAgro” MCHJ bog’dorchilik fermer xo’jaligida mavjud bog’larida pakana nok daraxtlarining o’sishi, rivojlanishi va hosil elementlarining shakllanishiga nav-payvandtag kombinatsiyalari hamda ko’chat qalinligiga bog’liqligi o’rganildi. Tadqiqotda serhosil nok navlari – Vilyams, Karmen va Abbat kabilar sekin sust o’suvchi S<sub>1</sub> payvandtagga ulangan pakana nok navlarini biologik xususiyatlari – o’sish, rivojlanish va hosil elementlarining shakllanishiga bog’liqligi har tomonlama o’rganildi.

**Kalit so’zlar:** Nok, pakana o’rta sekin o’suvchi payvandtaglar, nav-payvandtaglar kombinatsiyalari, biologik xususiyatlari, o’sish, rivojlanish, hosil elementlari, ko’chat qalinligi, samaradorlik.

**Kirish.** Intensiv mevachilik agrar sohasining eng zaruriy va o’ziga xos tarmoqlardan biri hisoblanadi, urug’li intensiv mevali bog’lar, jumladan ko’chatlarii pakana vegetativ yo’li bilan sekin o’suvchi payvandtaglarda parvarish qilib qilinmoqda va muttasil mo’l va sifatli hosil berib kelmoqda.

O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan intensiv mevachilik tarmog’i oldiga ichki bozorni ta’minlash va xorijga eksport qilish salohiyatini kuchaytirish uchun mevachilik bilan bevosita shug’ullanadigan tashkilotlari ishlab chiqarish hajmini yana sezilarli miqdorda oshirish.

Yuqorida ko’rsatilgan mazkur sohada meva ishlab chiqarish miqdorini keskin oshirish, sifatini esa yaxshilash hamda meva ishlab chiqarish tan narxini kamaytirish asosan yangi mo’l va sifatli hosil beradigan intensiv bog’lar barpo qilish hamda mavjud bog’lardan ham yuqori va sifatli hosil olish ko’zda tutilgan.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jadallashtirilgan (intensiv) mevali bog’lar katta hajmda barpo qilinmoqda, bu intensiv bog’larda mevali daraxtlarga shakl berish, nav-payvandtaglarning biologik xususiyatlarini ilmiy asoslangan holda e’tiborga olib ularga muayyan shakl berish, kesish va tejamkor agrotexnologik omillar o’rganilgan bo’lsada, nav-payvandtaglarni biologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, nok daraxtlarini yoshiga qarab kesish usullari va darajalari hamda muayyan shakl berish tadbirlari mamlakatimiz sharoitida ilmiy asosda o’rganib kelmoqda va ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda.

Ayni paytda intensiv bog’lardan muttasil mo’l va sifatli hosil etishtirish bilan birgalikda, yaratilgan bog’larni tezroq, ya’ni ekilgandan keyin 2-3 yilda muntazam hosilga kirishni ta’minalash talab qilinadi. SHuningdek, intensiv nok bog’larda payvandtagi sekin o’suvchi va sekin o’rta o’suvchi, tupi kichik, sifatli hosil beruvchi navlar tanlanib, ularni parvarishlash jarayonida yuqori resurs tejamkor agrotexnik tadbirlar majmuiy qo’llanilganda har yili muntazam ishlab chiqarish sharoitida 25-30 t/ga yuqori sifatli hosil etishtirish imkoniyati yaratiladi.

Tajriba o’tkazish joyi va uslubiyoti. Ilmiy tadqiqot ishlari 2020-2022 yillar davomida Buxoro viloyati, Buxoro tumani “Bog’ikalon” MFY hududida joylashgan “SiyovushAgro” MCHJ bog’dorchilik fermer xo’jaligida o’tkazilib kelinmoqda. Mazkur “SiyovushAgro” MCHJ bog’dorchilik fermer xo’jaligi tuprog’i allyuvial qadimdan sug’oriladigan kuchsiz sho’rlangan tuproqdan iborat bo’lib, sizot suvlarining sathini yuza joylashganligi bilan (0.80-1.50) farqlanadi. Mexanik tarkibi bo’yicha o’rtacha soz tuproq hisoblanadi.

Buxoro viloyati “Yer kadastri” laboratoriyasida MCHJ “AgroSiyovush” tuproqlarni agrokimyoviy xossa-xususiyatlari tahlil qilinganda quyidagilar ma’lum bo’ldi, ya’ni o’tloqi qadimdan sug’orilib kelinayotgan tuproqlarda chirindi (gumus) miqdori 0.8-1.4%ni, azot esa 0.06-0.12%ni, umumiyl fosfor 0.1-0.18%ni va kaliy –

1.22-1.45% ni tashkil qildi, sizot suvlari esa 0.80-1.50m chuqurlikda joylashganligi aniqlandi [2,4,6,9,10].

Tadqiqot ob'ekti o'rta o'suvchi S<sub>1</sub>, payvandtagiga ulangan pakana nok navlari Vilyams, Karmen va Abbat bo'lib, nokzor bog'lariga 4.0x1.0 va 4.0x1.2m tartibda joylashtirilgan va bir gektarga 2088-2500 dona ko'chat mavjud. Payvandtag sifatida S<sub>1</sub> behidan foydalangan, bu payvandtag Polsha mamlakatida topilgan. Nokni Vilyams, Karmen va Abbat navlari bu payvandtakka ulanganda 2-3yildan boshlab hosilga kiradi va bir tup nokdan 0.4-2.0 kg/ga sifatli hosil olindi. 20-25 yil davomida ustuvor mo'l va sifatli hosil beradi. O'rganilgan navlar bo'yicha o'rtacha hosildorlik 180-230/ga ni tashkil qiladi [1,3,5,7,8].

Nok daraxtlarini shox-shabbalari yarim siyraklashtirilgan usulda shakl beriladi va bu shaklda nok daraxtlari maqbul o'sadi va rivojlanadi. Nok daraxtlari vegetativ davrida innovatsion tejamkor texnologiyalardan foydalanadi va tomchilatib sug'orish usulida sug'oriladi. Nok bog'lari kun oralab maxsus o'rnatilgan quvuplar orqali tomchilatib sug'oriladi, natijada esa suv sarfi 2-3 marotaba tejaladi, meva ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

Past bo'yli payvandtaglar, ayniqsa vegetativ payvandtaglarda o'stirilayotgan intensiv bog'larda nok daraxtini o'sishi va rivojlanishi jarayonida ko'pgina uglevodlar meva elementlarini hosil qilish uchun, nisbatan kam qismi daraxt va ildizlarining o'sishi va rivojlanishi uchun sarflanadi. Nok daraxtlari qator oralarini amal, ya'ni o'suv davrida begona o'tlardan 2 marta tozalanadi va azotli o'g'itlar – 250kg, fosforli o'g'itlar – 150-180kg hamda kaliyli o'g'itlar esa 45-60kg sof holda erga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalari.** MCHJ “SiyovushAgro” bog'dorchilik fermer xo'jaligida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarni maqsadi nok bog'larida pakana payvandtaglarning biologik xususiyatlari, ko'chat qalinligi va nav-payvandtaglar kombinatsiyalarining o'sish, rivojlanish va hosil elementlarini shakllanishiga ta'sirini o'rganish hamda pakana nok daraxtlarida yorug'likni maqbul rejimini belgilashdan iborat, pakana nok daraxtlarida yorug'lik rejimini yaxshilashi natijasida daraxtlarini optimal o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'tishiga muayyan sharoit yaratilgandi. Vilyams, Abbat va Karmen kabi navlarida (payvandtag S<sub>1</sub>) 2020 yilda shox-shabbani pastki qismida 66%,

o’rtangi qismida – 56%, va yuqori qismida esa 72%ni tashkil qildi, 2021 yil daraxtlarini ustuvor o’sishi natijasida yorug’lik 2-4%gacha kamaygani aniqlandi, bu ko’rsatkich daraxtlarni o’sishiga va rivojlanishiga deyarli ta’sir qilmaydi, mo’l va sifatli hosil berish imkoniyati pasaymaydi.

Pakana nok novlari daraxtlarining kompleks zararli organizmlardan himoya qilish ishlari MCHJ “SivushAgro” bog’dorchilik fermer xo’jaligida faoliyat ko’rsatayotgan yuqori bilimga ega agronomlari bilan hamkorlikda va ularning qat’iy nazorati ostida bizni ishtirokimizda o’tkazib kelinmoqda.

**Xulosa.** O’tkazilgan ilmiy tadqiqot tajribalaridan shu ma’lum bo’ldiki, MCHJ “SivushAgro” bog’dorchilik fermer xo’jaligida mavjud pakana nok navlarini shoxshabba tizimiga quyosh nurlari bir maromda tarqaladi, kompleks zararli organizmlardan to’g’ri himoya vositalari qo’llandi, zararkunandalarining miqdori keskin kamaygan, uch yillik nok daraxtlarini o’rta qismida ham havo almashinushi jarayoni maqbul o’tdi va natijada quyosh nurlari hosil shakllanishi jarayoniga yaxshi ta’sir qildi va hosildorlikni muttasil mo’l va sifatli o’sishiga sabab bo’ldi.

O’rganilayotgan uch yillik pakana nok navlarini S<sub>1</sub> payvandtakka ulanganligi sababli ularni fitometrik ko’rsatkichlarini yaxshilanishiga va pirovard natijada esa pakana nok navlarini hosildorligi 15-20%ga ko’payishiga olib keldi.

Shuningdek, tadqiqot va MCHJ “SivushAgro” bog’dorchilik fermer xo’jaligida olib borilgan resurs tejamkor texnologiya natijalari shundan dalolat beradiki, intensiv pakana nok daraxtlariga mos va xos shakl berish, zamonaviy agrotexnologiyalar, tomchilatib sug’orish usullarini qo’llash, kasallik va zararli organizmlardan kompleks himoyalash, maqbul nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko’chat qalinligi hamda ularning biologik xususiyatlarini to’g’ri tanlash kabilar nok mevalarning etishtirishini iqtisodiy samaradorligini keskin oshishiga sabab bo’ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Aripov A.U., Aripov A.A. Urug’lik intensiv meva bog’lari. – T. “Sharq”, 2013, 156bet.

2. Ganieva F.A., Yunusov R. Buxoro viloyati sharotida intensiv olmazorlarda o'sish va hosildorlikning nav-payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi. Monografiya.“Durdona”, Buxoro, 2021, 102bet.
3. Yunusov, R., Ganieva F.A. (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. TSentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz), 6.
4. Ganieva F. A., YUnusov R. (2021). Rost i razvitiya vegetativno razmnojaemyx podvoev yabloni v zavisimosti ot plotnosti posadki. Stolitsa Nauki”. M.
5. Ganieva F. A., Yunusov R. "Rost i plodonoshenie dereviev persika v oroshaemyx sadax v zavisimosti ot konstruktsii krons". TSentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz) 6.6 (2021).
6. Ganieva Feruza. "INTENSIV BOG'LARDA PAKANA NOKLARNI TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PARVARISHLASH OMILLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
7. Yunusov Rustam, Ganieva Feruza. "БУХОРО ВИЛОЯТИ БУХОРО ТУМАН БОФИКАЛОН МФЙ ҲУДУДИДАГИ МЧЖ “СИЁВУШАГРО” БОФДОРЧИЛИК ФЕРМЕР ҲЎЖАЛИГИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ХОССА-ХУСУСИЯТЛАРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
8. Yunusov Rustam. Ganieva Feruza. "THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
9. Yunusov, R., Ganieva FA (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).
10. Atayeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(9).